



## SOTSIAL ASOS QONUNI VA UNING OILANI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

S.Abduxalikov

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kafedra professori,  
falsafa fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13371306>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> August 2024

Accepted: 12<sup>th</sup> August 2024

Published: 14<sup>th</sup> August 2024

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*E'tiborni oilaviy munosabatlarga oid yuridik normalarning jamiyat negizi – madaniy borliq va sivilizatsiyalarga bog'liq nisbatlariga qarataylik. Tarixni dialektik madaniy tushunishga ko'ra jamiyat mavjudligi va rivojlanishining asosini madaniy borliq tashkil etadi.*

Madaniy borliq – bu insonlar va ularning o'z mavjudliklarini ta'minlash maqsadida voqealarning ishlov berib yaratilgan qismidir. Ushbu madaniy borliq o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham o'zgaradi, uning rivojlanishi bilan jamiyat ham rivojlanadi, sivilizatsiya – mamlakatlar ham o'zgaradi, quyidan yuqoriga tomon rivojlanadi. Madaniy borliq kishilik tarixining substansiyasi sifatida barcha ijtimoiy hodisalar, jumladan oilaviy munosabatlarga oid yuridik normalarning ham substansional asosi hisoblanadi. Bugungi kunda "O'zbekiston Respublikasi" deb ataladigan sivilizatsiya, ya'ni mamlakatning "Oila kodeksi" jamiyat huquqiy madaniyatining, jamiyat huquqiy madaniyati esa madaniy borliqning tomonidir. **Demak, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi madaniy borliqqa nisbatan tomon emas, balki element sifatida amal qiladi. Madaniy borliqqa xos umummadaniy qonuniyatlar oila huquqiga oid yuridik normalarning mavjudligini belgilaydi va o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladilar.**

"Sivilizatsiya" lotincha so'z bo'lib, fuqarolikka, davlatga oid, degan ma'nolarni anglatadi. Lekin ilmiy adabiyotlarda "sivilizatsiya" tushunchasini ishlatishda bir xillik yo'q. Agar sivilizatsiyani ibtidoiy, ya'ni yovvoyilikdan keyingi davrga qo'llasak, u ijtimoiy formatsiya tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega bo'ladi. Agar uni ijtimoiy formatsiya tushunchasi bilan aynanlashtirsak, u o'zining metodologik ahamiyatini yo'qotadi. "Sivilizatsiya" tushunchasining boshqa xildagi konsepsiyalari to'g'risida ham xuddi shunday bir xil fikrda emasmiz. Xuddi shuningdek, "fuqarolik jamiyati" tushunchasi sotsiologik va yuridik yo'nalishlarda, jumladan, nodavlat sohalarining kengayishi ma'nolarida xam ishlatiladi.

Bizningcha, sivilizatsiya muayyan tizimga ega madaniy borliq tomonidan belgilanadigan o'z davlati va fuqarolariga ega bo'lgan mamlakatdir. Sivilizatsiyalarni mana shu tartibda o'rganish ularning o'ziga xos (lokal), umumiy va eng umumiy qonuniyatlarini ochib beradi. Bu haqda Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning quyidagi fikrlari metodologik dasturilamaldir: "Ulkan madaniy meros maskani bo'lgan zaminimizda ko'pdan-ko'p mustaqil sivilizatsiyalar o'z qadriyatlarini avlod-dan-avlodga o'tkazib, zamonlarning chambarchas aloqasini ma'naviy va madaniy qadriyatlar davomiyligini vujudga keltiradi".[1]. Huquq davlat hokimiyati orqali amalga oshadi. Vatanimiz hududida qadimgi davr va o'rta asrlarda bo'lsin

yoki yangi va eng yangi davrlarda bo'lsin, nechta davlatchilik bo'lgan bo'lsa, oila huquqi normalari ushbu davlat hokimiyatlari tomonidan kafolatlangan.

Xullas, kishilik tarixi ijtimoiy formatsiyalardan, formatsiyalar esa sivilizatsiyalardan, sivilizatsiyalar esa tarixiy davrlardan tashkil topgan. Formatsiyalarning negizi - madaniy borliqlar jamiyat madaniy borlig'iga nisbatan alohidaligi, sivilizatsiyalar madaniy borliqlariga nisbatan umumiyliklari bilan - ishlab chiqarish usuli, sotsial-sinfii va siyosiy tuzulmalarining umumiyliklari bilan farqlanadi.

Demak, oilaviy munosabatlarga oid yuridik normalar muayyan makon va zamonda chegaralangan: ularning kuchga kirishi, amal qilishi muayyan sivilizatsiyalar doirasida yuz beradi. Agar sivilizatsiyalar, ya'ni mamlakatlar o'zgarsa, ushbu yuridik normalar ham o'zgaradi. Chunki sivilizatsiyalar negizi - madaniy borliq bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tgan bo'ladi. **Shuning uchun oilaviy munosabatlarga oid yuridik normalarning ham sivilizatsiyalarga bog'liqligi qonuniyatli jarayondir.**

**E'tiborni oilaning jamiyatning sotsial hayoti tizimidagi o'rniga qarataylik.** Inson ehtiyojlarining turli-tumanligidan madaniy borliqning sotsial, moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniy qismlari kelib chiqqan. Ushbu madaniyat turlari negizida ijtimoiy hayotning - sotsial, moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy hayot sohalari shakllangan.

Jamiyatning sotsial hayoti sohasi quyidagi bir-biri bilan bog'langan tarkibiy qismlardan iborat: 1) inson; 2) insonning **oila** va mehnat jamoasidan iborat mikrosotsial birligi va urug', qabila, elat, millat, sotsial qatlam va sinflardan iborat makrosotsial birliklari; 3) insonlarning aholi birliklaridan iborat demografik hayoti. Bunda shahar va qishloq aholisi demografik hayotning territorial birligi sifatida amal qiladi; 4) insonlarning ijtimoiy qatlam va sinflardan iborat maishiy madaniyatlari, bo'sh vaqti, mehnat sharoitlarini o'z ichiga olgan turmush tarzi va sotsial normalari; 5) tibbiyot va sport sohalari; 6) kommunal xo'jalik, uy-joy qurilishi, savdo, transport va boshqa shu kabi sohalari.

Demak, kishilarning sotsial hayoti jamiyatning to'rtta sohasidan biri hisoblanib, inson va uning birliklari asosiy tarkibiy qismni tashkil etadi. **Oila** esa insonlarning mikrobirligi tizimida joylashgan.

**E'tiborni oila joylashgan tizim - sotsial asos qonuni roliga qarataylik.** Jamiyat asosi - madaniy borliq quyidagi to'rtta tarkibiy qismdan tashkil topgan: asosiy qismi inson va uning birliklaridan tashkil topgan sotsial madaniyat; moddiy madaniyat; jamiyatning ma'naviy madaniyati va jamiyatning siyosiy-huquqiy madaniyatlari. Ular funksional holatlariga ko'ra bir-birlarini taqozo qiladilar, ya'ni korrelyatsiyada bo'ladilar. Bu korrelyatsion-funksional tizimda quyidagi to'rtta korrelyatsion-funksional qonunlar kelib chiqadi: inson va uning birliklarining jamiyat yadrosi - madaniy borliqning boshqa qismlariga nisbatan sotsial asos, ya'ni sub'ektning belgilovchilik roli qonunini bajarishi; xo'jalik va ekomadaniyatlardan tashkil topgan moddiy madaniyatning jamiyat yadrosi - madaniy borliqning boshqa qismlariga nisbatan moddiy asos qonunini bajarishi; jamiyat ma'naviy madaniyatining jamiyat yadrosi - madaniy borliqning boshqa qismlariga nisbatan ma'naviy asos qonunini bajarishi; jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatlarining jamiyat yadrosi - madaniy borliqning boshqa qismlariga nisbatan boshqarib va tartibga solib turuvchilik qonunlarini bajarishlari. **Oila esa to'rtta korrelyatsion-funksional qonunlardan biri - jamiyatning sotsial asos qonuni tizimida joylashgan. Oilaga oid yuridik normalar esa jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatlari tizimidan o'rin olgan.**

Antropogenezning ehtiyojlari odam podasini, va ayni vaqtda uning sotsial podaga - yarim sotsial birlik - jamoaga o'tishga olib kelgan. Tirik qolish zaruriyati odam podasining to'la ma'nodagi sotsial jamoa bo'lishini, xususan moddiy ehtiyojlarni tabiatga ishlov berib qondirishni taqozo etgan sotsial birlik yoki jamoa, xususan mehnat va dastlabki inson **oilalarining** yuzaga kelishiga olib kelgan. Ushbu zaruriyat ayni vaqtda - sotsial normalar (biologik, xususan instinktiv normalardan farqli o'laroq)ning shakllanishsiz bo'lmagan. Bunda alohida shuni ta'kidlash kerakki, sotsial normalar ayni vaqtda o'z mavjudlik holatiga ko'ra

sotsial hayotning, xususan ibtidoiy jamoa sotsial birligining (mikrosotsial birlik bilan birgalikda) tomoni hisoblanadi, funksional holatiga ko'ra esa tartibga soluvchilik vazifasini bajargan. Uning negizida keyinchalik siyosiy va huquqiy normalar ham o'sib chiqqan. Shuningdek, sotsial normalar sinkretik xarakterga ham ega. Kishilarning sotsial birliklari va ayni vaqtda tabiatga dastlabki ishlov berishdan iborat moddiy ishlab chiqarish va tartibga solib turuvchilik kuchga ega bo'lgan sotsial normalarning yuzaga kelishi abstrakt tafakkur va bilish jarayonlarini - ularga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqargan. Demak, kishilarning dastlabki sotsial birliklari (ayni vaqtda mikrosotsial birlik), dastlabki primitiv moddiy ishlab chiqarish faoliyati, dastlabki tartibga solib turish xususiyatiga ega ibtidoiy sotsial normalar, ibtidoiy odamning aqliy bilishi, xullas bu sotsial - madaniy tomonlar bir-biri bilan taqozalangan va bog'liq ravishda, bir-birini yaratuvchi omillar sifatida parallel holatda yuzaga kelgan.

Demak, madaniy borliq kishilarning sotsial birliklari va uning tomonlari - moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniyatlarining korrelyativ-funksional bir butunligidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning asosini tashkil etadi. Bunda kishilarning sotsial birliklari ijtimoiy hayotda sotsial substrat (ya'ni asos) va harakatlantiruvchi kuch kabi ko'rinishlardagi sotsial asos qonuni maqomiga egadir. Chunki kishilar va ularning sotsial birliklari bo'lmasa, ijtimoiy hayotning qolgan qismlari ham bo'lmaydi. Shuningdek, sotsial substrat, ya'ni kishilarning sotsial birliklari o'zgarsa ijtimoiy hayot ham o'zgaradi. Demak, kishilarning sotsial birliklari ijtimoiy hayotda belgilovchilik rolini o'ynaydi.

Tarixni dialektik-madaniy tushunishdan ko'rinib turibdiki, mada-niy borliqning sotsial asosi - kishilarning sotsial birliklari, xususan, makrobirlklari o'zgarishi bilan madaniy borliqlar ham o'zgarib borgan va o'z-o'zidan tushunarliki, sotsial asossiz madaniy borliq hech narsadir. Tarixni dialektik madaniy tushunish bo'yicha madaniy borliqning moddiy asosi ma'naviy va siyosiy -huquqiy asoslari bilan birgalikda parallel kuchga va statusga ega.

Inson bioijtimoiy madaniy hodisa sifatida o'zining mikro va makro birliklarining elementi sifatida amal qiladi. To'g'ridan-to'g'ri aytish mumkinki, mehnat jamoasi va oila insonlarining mikrobirlklari sifatida madaniy hodisalardir. Insonlarning mikrossotsial birligining ikki elementi - mehnat jamoasi va oila dialektik aloqadorlikdadir. Ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi ikki bosqichdan - ibtidoiy poda va urug'doshlik tuzumlaridan iborat. Birinchi bosqichda ibtidoiy poda ayni vaqtda mehnat jamoasi ham bo'lgan. Va shu mehnat jamoasi ichida qon-qardosh va so'ngra punalual oilalar tarkib topgan. Agar bunda qon-qardosh oilada ota-ona va bolalar o'rtasidagi intim munosabatlar ta'qiqlangan bo'lsa, punalual oilada esa aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi intim munosabatlar barham topadi. Bu davrda oilaviy munosabatlarning shakllanishida mehnat jamoasi belgilovchilik rolini o'ynagan. Va aksincha, oila o'zining nasl qoldirish vazifasi bilan mehnat jamoasining davomiyligini ta'minlagan. Ushbu mikromadaniy elementlar bir butun birlikda qator ob'ektiv hodisalarni, jumladan, urug' va unga xos bo'lgan jarayonlarni keltirib chiqargan. Insonlarning mikrobirlklari yuzaga keltirgan birinchi qatordagi hodisalar safiga kishilarning makrobirlklarini, qishloq, mahalla aholisi kabi birliklarni kiritish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, kishilarning mikro va makro birliklari uzviy aloqadorlikda. Manfaat ularni birlashtiradi va u kishilarining faoliyati orqali ro'yobga chiqadi. Kishilarning mikro (jumladan, oila) va makro birliklari bir butun holida substrat - sotsial asos qonuni sifatida ijtimoiy hayotning barcha sferalarida, birinchidan, sotsial tashuvchi, ikkinchidan, harakatlantiruvchi kuch - yaratuvchi ko'rinishlarida amal qiladi. Agar sotsial tashuvchi sotsial birlik ko'rinishda bo'lsa, harakatlantiruvchi kuchlari tarixda shaxs va xalq ommasi rolining o'sib borishi qonuni sifatida amal qiladi.

Xullas, inson va uning sotsial birliklari, jumladan oila ijtimoiy hayotda sotsial asos qonuni vazifasini o'taydi, chunki u o'zgarsa jamiyatning elementi, tomoni, qismlari va bir butun jamiyat o'zgaradi. Demak, oila va oila huquqi masalalarini tadqiq qilishda ushbu ijtimoiy - falsafiy qoidalarga ham tayanish xolisona fikrlashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.:”O'zbekiston”,  
1995. 144-bet.



INNOVATIVE  
ACADEMY